



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

NEMIS VA O‘ZBEK TILLARIDAGI HARBIY TERMINLARNING YASALISH JIHATI

Kazakova Laylo Madorimovna
O‘zbekiston Milliy universiteti, tadqiqotchi

Annotatsiya

Ushbu maqolada til lug‘at boyligining kengayish manbalaridan biri bo‘lgan so‘z yasash usullari xususida mulohaza yuritiladi. Bundan tashqari nemis va o‘zbek tillari qatlamidagi harbiy sohaga tegishli bo‘lgan yasama birliklar shakllanishidagi o‘ziga xos jihatlar ayrim harbiy terminlar misolida tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: harbiy terminlar, so‘z yasash, so‘z turkumlari, sermahsul, affikslar.

ФОРМИРОВАНИЕ ВОЕННЫХ ТЕРМИНОВ В НЕМЕЦКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Казакова Лайло Мадоримовна
Национальный университет Узбекистана, исследователь

Аннотация

В статье рассмотрены способы образования слов, как один из источников обогащения словарного запаса языка. Кроме того, проанализированы специфические особенности формирования производных единиц на примере военных терминов, относящихся к пластам немецкого и узбекского языков

Ключевые слова: военные термины, образование слова, части речи, продуктивный, аффиксы.

THE FORMATION OF MILITARY TERMS IN GERMAN AND UZBEK

Kazakova Laylo Madorimovna
National University of Uzbekistan, Researcher

Abstract

The following article highlights ways of word formation – one of the lexical resources enrichment in language. Furthermore, definite features in formation of German and Uzbek word compounds in military sphere in examples of several military terms is analysed.

Keywords: military term, word formation, parts of speech, productive, affixes.

Tillar sistemasida terminologiya alohida o‘ringa egaligi bilan ajralib turadi. Terminologiyaning tilning leksik qatlamidagi roli borasida turli fikrlar mavjud bo‘lib, bir tomondan, terminologiya adabiy til leksikasining mustaqil qismi sifatida e‘tirof qilinsa, ikkinchi ta’limotga ko‘ra, terminologiya adabiy til so‘z boyligining tarkibiy qismidan alohida turishiga ishora qilinadi.

Umumiste‘mol birliklaridan farqli holda terminlar doim maxsus tushunchalarni ifodalashga yo‘naltirilgan bo‘ladi va tillarning shakllanishi hamda taraqqiy qilishi natijasida tarkib topishi va doimiy tarzda takomillashib borishi ma’lum. Tadqiqotlar bo‘yicha terminlar so‘z ega bo‘lgan deyarli barcha xususiyatlarga ega bo‘lib, ular sirasiga terminlarning yasash xususiyati, ma’no jihati va boshqalar tegishlidir.

Ma’lumki, har qanday til to‘xtovsiz ravishda boshqa tillardan so‘z o‘zlashtirish hamda tilning ichki imkoniyatlari asosida, ya’ni turli so‘z yasash usullari yordamida yangi so‘z yasash orqali boyib boradi. Ushbu jarayonda so‘z yasash usul va shakllari hamda turli modellar nazarda

tutiladi. Soʻz yasalishi masalasiga tilshunoslikda azaldan eʼtibor berilishi natijasida soʻz yasash usullari tadqiqot obyekti boʻlgan ishlar salmoqli miqdorni tashkil qilishi koʻrinadi.

Soʻz yasalishi lingvistikaning bir boʻlimi sifatida maʼlum bir lugʻaviy birlikdan soʻz yasovchi vosita yordamida yangi soʻz yuzaga kelishini tadqiq qiladi.

Tillarning oʻz ichki imkoniyatlari, maʼlum qoidalari asosida hosil boʻlgan birliklar quyidagi yoʻllar asosida yaratiladi:

1. Maʼlum bir tilga oid soʻzlarga ayni tilga tegishli boʻlgan qoʻshimchalarni qoʻshish yordamida. Ushbu holatda -chi, -siz, -li, -gich va boshqa qoʻshimchalar yordamida yasama soʻzlar hosil qilinadi.
2. Chet tillaridan oʻzlashgan soʻzlarga qoʻshimcha qoʻshish yordamida yasalgan soʻzlar.

Yuqoridagilardan tashqari, tillardagi ayrim soʻzlar kompozitsiya usuli yordamida shakllangan birliklardan tashkil topgan. Bunda qoʻshma soʻzlar quyidagicha hosil qilingan boʻladi:

- qoʻshma soʻzning barcha tarkibiy qismi bir lugʻaviy qatlamga oid soʻzlardan tarkib topgan boʻladi;
- turli lugʻaviy qatlamga tegishli soʻzlardan iborat boʻladi [7; 32-b.].

Nemis tilshunosligida ham soʻz yasalishi til leksik qatlamining boyishining asosiy usuli sifatida koʻriladi va bunda tilda oldindan mavjud boʻlgan til materiallariga tayanish nazarda tutiladi. Nemis tiliga yangi soʻz hosil qilishning quyidagi koʻrinishlari xos boʻlib, ular: soʻz yasash (Derivation), soʻz qoʻshish (Komposition), bir soʻz turkumidan boshqa soʻz turkumiga oʻtish, soʻz qisqartirish jarayonlaridan iborat (Kurzwortbildung).

Soʻz yasalishi hodisasi boʻyicha bir qancha olimlar shugʻullangan boʻlib, turli xil fikrlarning ifodalanganligi soʻz yasalishi tizimida turli modellar mavjudligidan dalolat beradi. L. V. Egorochkina oʻzining maqolasida nemis tili soʻz boyligining boyish manbai sifatida soʻz yasalishi, soʻz maʼnosining oʻzgarishi, omonimlarning paydo boʻlishi hamda boshqa tildan soʻz oʻzlashishini keltiradi [8; 130–133-b.].

Nemis tilida soʻz yasash usullaridan biri sifatida prefiks hamda suffikslar yordamida harbiy terminlar yasalishi uchraydi. Masalan, *entwaffnen* — qurolsizlantirmoq, quroldan mahrum qilmoq, *gefahrlos* — xavfsiz kabilarni misol keltirish mumkin. Tilda soʻz yasovchi affikslar produktiv hamda kammahsul kabi turlarga ham ajratiladi. Bundan tashqari, prefikslar semantik xususiyatga ham ega boʻlib, *un-* va *miß-* prefikslari koʻpincha inkor tushunchani ifodalovchi soʻzlarni yasashda keng tarqalgan. *Unbewaffnet* — qurollanmagan, *unbemannt* — uchuvchisiz kabi harbiy tushunchani ifodalaydigan birliklar tilda uchraydi. Qiziqarli tomoni shuki, ot soʻz turkumining yasalishida elliktacha suffiks mavjudligi aytiladi va -ling, -heit, -er, -chen, -tum kabilarning faol uchrashi borasida xulosa bildiriladi [8; 130–133-b.].

Kompozitsiya usuli yordamida yangi leksik birlik hosil qilinishi deganda ikki yoki undan ortiq soʻzning birikuvini nazarda tutilib, ushbu usul hind-yevropa tillarida yangi soʻz hosil qilishning mahsuldor usullaridan biri deb qaraladi. Qoʻshma otlar quyidagi morfologik strukturaga ega boʻlishi mumkin: ot+ot, sifat+ot, feʼl oʻzagi+ot, son+ot, olmosh+ot, ravish+ot, koʻmakchi+ot tarzida. Tilshunoslikda nemis tili leksikasi qoʻshma soʻzlarga boy ekanligi haqidagi fikrlar ushbu holatning harbiy terminlar tizimida ham keng tarqalganligidan dalolat beradi. Bu holatda turli modellar kuzatilib, eng keng tarqalgan turi ot+ot shaklidagi koʻrinishlardir. Jarayonga *Gewehrpatrone* f — miltiq patroni, *Kampfpanzer* m — jangovar tank, *Minenjagddrohne* f — mina izlovchi dron va yana boshqa qator misollarni keltirish mumkin.

Bir soʻz turkumidan ikkinchi soʻz turkumiga oʻtish orqali yangi leksik birlik hosil boʻlishi nemis tilshunosligida konversiya tushunchasi bilan ifodalanib, bunda soʻzning qaysi soʻz turkumi tarkibiga oʻtishiga koʻra soʻzlarning otlashishi, sifat soʻz turkumiga oʻtishi va shu kabi feʼllar sistemasiga kirishi koʻzga tashlanadi. Bundan tashqari, eng qiziq tomoni ot, sifat, olmosh va ravish kabi soʻz turkumlarining bogʻlovchilar tarkibiga oʻtishi kamdan-kam holat boʻlsa-da, uchraydi.

Qisqartmalarning ham turli shakllari mavjud boʻlib, ular ham boyish manbalari qatoriga

kiritiladi. Ushbu usul harbiy terminlar tizimida keng tarqalgan. *AbtT* — *Abteilung Wehrtechnik* — harbiy texnika bo‘limi, *BrüPz* — *Brückenpanzer* — ko‘prik hosil qiluvchi tank, *MG* — *Maschinengewehr* n — pulemyot kabilar jarayonga misol bo‘ladi.

Tilning tashqi imkoniyatlar hisobiga boyishi ham tillarda keng tarqalgan holat sifatida aytilib, nemis hamda o‘zbek tillarida uchraydi. Barcha xalqlar bir-biri bilan iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqada bo‘lib kelganligi ma‘lum. Ushbu jarayon natijasi tillarda o‘z aksini topib, o‘zlashmalar vujudga kelgan va tilning ma‘lum miqdorda boyishiga olib kelgan. Tilda lotin, grek, fransuz va so‘nggi yillarda ingliz tilidan o‘zlashgan harbiy terminlar uchraydi. Harbiy sohada qo‘llanilib kelinayotgan *Armee* — armiya, *Bataillon* — batalon, *Garnison* — garnizon, *Kommandeur* — komandir kabi birliklar o‘zlashgan termin sanaladi.

Keyingi o‘rinlarda esa o‘zbek tilida so‘z yasalihi ayrim harbiy terminlar misolida tahlilga tortiladi. A. Hojiyevning “O‘zbek tili so‘z yasalihi” kitobida affiksatsiya va kompozitsiya usullari bilan so‘z yasalihi misollar yordamida to‘liq yoritilgan. Barcha ko‘rinishdagi so‘z yasalihi tegishli bo‘lgan belgi yangi leksema hosil qilinishidir. So‘z yasash deganda ma‘lum bir lug‘aviy birlikdan so‘z yasovchi vosita orqali yangi so‘z yuzaga kelishi tushuniladi [5; 7-b.]. Affiksatsiya bilan ot, sifat, fe‘l va ravish kabi so‘z turkumlari yasalihi mumkin. Olib borilgan izlanishlar bo‘yicha ma‘lum bir fan doirasidagi tushunchalarni yasashda faol bo‘lgan qo‘shimchalar boshqa bir sohada faol bo‘lmasligi mumkin. Bundan tashqari, ularning son jihatdan chegarasi mavjud emasligi alohida ahamiyatga ega. Aslini olganda, til tizimida tub so‘zlarga qaraganda yasama leksik birliklar salmoqli miqdorni tashkil qiladi.

H. Dadaboyevning “O‘zbek terminologiyasi” kitobida o‘zbek terminologiyasi sistemasida tub terminlar bilan birgalikda derivativ terminlar ham ahamiyatli ekanligi aytiladi. Bundan tashqari, tub shakldagi terminlar terminlar sistemasining shakllanishi hamda rivojlanish bosqichlarida mavjudligiga urg‘u berilgan holda *yoy*, *to‘p*, *o‘q* kabilar misol tarzida keltiriladi [1; 61-b.]. Izlanishlar bo‘yicha nemis va o‘zbek tillari harbiy terminologiyasining ko‘pchilik qismini yasama terminlar tashkil qiladi.

Nemis va o‘zbek tillari harbiy terminologiyasi o‘rganilganda, ular asosan ot, fe‘l va sifat so‘z turkumlaridan iborat ekanligi yuzaga qalqadi. Ammo ular orasida ravish hamda harakat nomi ham uchraydi.

Affiksatsiya usuli yordamida termin yasalihi o‘zbek tilshunosligida sermahsul usul deb qaraladi. Har bir fan tizimida nomlash bilan bog‘liq tushunchalarni ifodalaydigan birliklar salmoqli miqdorni tashkil qiladi. Quyida bosqichma-bosqich ayrim affikslar tahlil qilinadi:

- -chi qo‘shimchasi *razvedkachi* leksik birligida asosdan anglashilgan narsaga tegishli bo‘lgan mashg‘ulot bilan shug‘ullanuvchi shaxsni bildiruvchi ot yasaydi;
- -soz suffiksi *qurolsoz* so‘zida qurol-yarog‘ yasovchi usta, hunarmand tushunchasini bildiradi;
- -ma affiksi ham harbiy leksik birliklar yasashda mavjud bo‘lib, *sochma* tushunchasini misol sifatida aytish mumkin;
- -gich affiksi bilan yasalgan leksik birliklar asos anglatgan ish-harakatni amalga oshirish uchun yo‘naltirilgan va shunga tegishli bo‘lgan ot so‘z turkumiga oid birliklarni yasaydi: *alangalantirgich*, *portlatgich*, *mina qidirgich* tarzida;
- -(i)sh qo‘shimchasi fe‘llardan leksik birliklarni yasashda faol bo‘lib, *minalashtirish*, *bomba tashlash* kabilarni misol sifatida keltirish mumkin.

Yuqorida ayrim harbiy leksik birliklarni yasashda ishtirok qiladigan affikslar ko‘rib chiqilgan bo‘lsa, keyingi o‘rinda sifat so‘z turkumini shakllantirishda sermahsul bo‘lgan hodisaga to‘xtalib o‘tiladi. Tilshunoslikda -li hamda -siz suffikslari predmetning biron belgi yoki xususiyatga ega yoki, aksincha, ega emasligini anglatishi aytilgan. *Stvolli*, *qurolsiz* kabi.

O‘zbek tili harbiy terminlar sistemasida ba‘zida ayrim prefikslar orqali ham so‘z yasalihi holatiga duch kelinadi. Ushbu holatda *no-* affiksi asosida yasalgan *nokontakt mina* tushunchasi misol bo‘la oladi.

Tilshunoslikda affiksatsiya usulidan tashqari kompozitsiya usuli bilan ham soʻz yasalishi mavjud boʻlib, bunda qoʻshma soʻzlar yasalishi nazarda tutiladi. Bunda birdan ortiq mustaqil soʻz sifatida qoʻllanib kelinadigan leksik birlik asosida shakllangan tushunchalar nazarda tutiladi. *Radioaloqa, aviatashuvchi, gidrosamolyot, bombapana* kabilar ushbu usulga misol boʻla oladi.

Yuqoridagilardan tashqari, termin birikmalar hisobiga ham terminologiya miqdor jihatdan ortib borayotganligi kuzatiladi. Ular ikki, uch, toʻrt va undan ortiq tarkibli termin birikmalar shaklida oʻzbek terminologiyasida uchraydi. Jarayonga harbiy sohadagi *bombardimonchi aviatsiya, biologik zararlangan zona, artilleriya qurolining tisarilishi, artilleriya qurol stvolining tirgagi* kabilarni misol keltirish mumkin.

Ilm-fan, texnika va boshqa sohalarining toʻxtovsiz rivojlanishi, jahonning rivojlangan davlatlarida roʻy berayotgan globallashuv hodisasi tillarda oʻz aksini topib, ularga tegishli boʻlgan leksikaning boyishiga olib keldi.

H. Dadaboyev, H. Yodgorovning “Oʻzbek harbiy terminologiyasi” kitobida oʻzlashmalar xususida fikr bildirilganda, oʻzbek harbiy terminologiyasi tizimi rus tili va rus tili orqali Gʻarbiy Yevropa tillaridan kirib kelgan oʻzlashmalar hisobiga kengayganligi aytiladi. Bundan tashqari, XIX asrning oxiri — XX asrning boshlarida rus tilidan oʻzbek tiliga *snaryad, granata, tank, aeroplan, mina, artilleriya* kabi qurol-yarogʻlarni ifodalovchi terminlar kirib kelganligi borasida maʼlumot keltiriladi [2; 36–148-b.].

Oʻzlashma terminlarning ayrim qismi oʻzlashgan tilning qonuniyatlariga moslashgan tarzda uning fonetik va grammatik xususiyatlariga moslashadi.

Xulosa oʻrnida aytadigan boʻlsak, har qanday tilda tub soʻzlarga qaraganda yasama soʻzlar salmoqli miqdorni tashkil qiladi. Ushbu holat tillardagi terminologik qatlamlarga ham tegishli boʻlib, nemis va oʻzbek tillari harbiy terminlariga ham xos jihatdir. Chogʻishtirilgan tillarda soʻz yasalishining barcha turlari maʼlum miqdorda uchraydi: nemis tilida qoʻshma soʻzlar yoki terminlar koʻp uchrasa, oʻzbek tilida affiksatsiya usulida yasalgan leksik birliklar salmoqli miqdorni tashkil qiladi. Barcha tillarda kuzatilganidek, nemis va oʻzbek tillariga ham boshqa tillardan soʻz oʻzlashtirish jarayoni xos boʻlib, bu holat turli davrlarda kechgan jarayonlar hamda fan sohalaridagi yutuqlar bilan bevosita bogʻliq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Dadaboyev H. Oʻzbek terminologiyasi. — Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. — 135 b.
2. Dadaboyev H., Yodgorov H. Oʻzbek harbiy terminologiyasi. — Toshkent: Sahnof, 2021. — 216 b.
3. Dolimov Sh. Harbiy atamalarning qisqacha izohli lugʻati. — Toshkent, 2007. — 394 b.
4. Hojiev A. Oʻzbek tilida soʻz yasalishi. — Toshkent: Oʻqituvchi, 1989. — 109 b.
5. Hojiev A. Oʻzbek tilida soʻz yasalishi tizimi. — Toshkent: Oʻqituvchi, 2007. — 146 b.
6. Turaxujayeva A. Hozirgi oʻzbek adabiy tili (leksikologiya, frazeologiya, lugʻatshunoslik): oʻquv-uslubiy qoʻllanma. — Muqimiy nomidagi davlat pedagogika instituti, 2006. — 61 b.
7. Egorochkina L. V. Nemis tilida lugʻat tarkibining rivojlanish yoʻllari va soʻz yasalish usullari (unumdorlik nuqtayi nazaridan) // Bashqird davlat universiteti xabarnomasi. — 2011. — 16-jild, 1-son. — B. 130–133.
8. Arakeljan S. Nemis tili leksikologiyasi. — Yerevan: Yerevan universiteti nashriyoti, 2017. — 141 b.